



DUDUQLANADIGAN BOLALAR BILAN OLIB BORILADIGAN LOGOPEDIK  
RITMIKA BO'YICHA MASHG'ULOTLARNING MAZMUNI

Shermatova Yokut Sabirovna

*Qo'qon davlat universiteti Maxsus pedagogika kafedrasida katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada Duduqlanishni bartaraf etishdagi kompleks yondoshish, kompleks yondoshishdagi asosiy vazifalar, logopedik texnikalarni qo'llash, duduqlanuvchilarni reabilitatsiyasining kompleks metodi, duduqlanuvchi bolalar bilan olib boriladigan logoritmik mashg'ulotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** duduqlanish, logoritmika, komplekslik metodi, musiqa, so'z, ritm, guruhli mashg'ulot, yakka mashg'ulot, o'yin.

СОДЕРЖАНИЕ ЛОГОПЕДИЧЕСКИХ РИТМИЧЕСКИХ ЗАНЯТИЙ С  
ЗАИКАЮЩИМИ ДЕТЬМИ

Шерматова Ёкут Сабировна

*Кокандский государственный университет Старший преподаватель  
кафедры специальной педагогики*

**Аннотация:** В статье представлен комплексный подход к устранению заикания, основные задачи комплексного подхода, применение логопедических методик, комплексный метод реабилитации заикающихся, а также логоритмические упражнения, проводимые с заикающимися детьми.

**Ключевые слова:** заикание, логорitmika, комплексный метод, музыка, слова, ритм, групповые занятия, индивидуальные занятия, игра.

CONTENT OF LOGOPEDIC RHYTHMIC EXERCISES CONDUCTED WITH  
STUTTERING CHILDREN

Shermatova Yokut Sabirovna

*Kokand State University Senior Lecturer, Department of Special Pedagogy*

**Abstract:** This article presents a comprehensive approach to eliminating stuttering, the main tasks of a comprehensive approach, the use of speech therapy techniques, a comprehensive method of rehabilitation of stuttering patients, and logorhythmic exercises conducted with stuttering children.

**Keywords:** stuttering, logorhythmics, complexity method, music, words, rhythm, group training, individual training, game.



Duduqlanuvchilar reabilitatsiyasi kompleks yondoshuvni talab etadi, chunki, nutq ravonligining buzilishi sabablari, ham biologik, ham psixologik xarakterga ega. Duduqlanishni bartaraf etishdagi kompleks yondoshish o'z ichiga ikkita nutqtai nazarni qamrab oladi.

Birinchidan, bu nutqning barcha tomonlarini me'yorlashtirish, motorika, barcha bilish faoliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan korreksion-pedagogik va tibbiy – sog'lomlashtirish ishlarining birligi duduqlanuvchi shaxsini tarbiyalashga va butun organizmni sog'lomlashtirishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, bu tizim qat'iy chegaralangan, ammo, turli mutaxassislarning: shifokor, psixolog, tarbiyachi, logoritmika mutaxassisi, musiqa o'qituvchisi, jismoniy tarbiya o'qituvchisining ta'sir vositalari o'zaro uzviy muvofiqlashtirilgan bo'ladi. Reabilitatsiya jarayonida ishtirok etadigan mutaxassislarning doirasi bundanda keng bo'lishi mumkin.

Adabiyotlarda duduqlanuvchilar bilan olib boriladigan alohida logopedik ishlar bilan bir qatorda qator kompleks reabilitatsion tizimlar ham keltirilgan. Ulardan foydalanish ushbu yordamni ko'rsatuvchi muassasaga, reabilitatsiya jarayonida ishtirok etayotgan mutaxassislarning soniga, ularning professional tayyorgarligiga va boshqalarga bog'liq bo'ladi.

Kompleks yondoshuv bir vaqtda uchta vazifani hal etishni ko'zda tutadi:

- 1) ravon nutq ko'nikmalarini shakllantirish;
- 2) duduqlanuvchi shaxsiga ta'sir ko'rsatish;
- 3) duduqlanishni takrorlanishi va surunkali kechishini oldini olish.

Birinchi vazifani hal etish qator logopedik texnikalarni qo'llash bilan bog'liq.

1. Patologik natq harakat stereotiplarini to'htatish.
2. Hissiy – emotsional holatni boshqarish.
3. Harakat koordinatsiyalari va ritmini rivojlantirish.
4. Nutqiy nafasni shakllantirish.
5. Ovoz berish va ovozni taqsimlash ko'nikmalarini shakllantirish.
6. Nutqning prosodik tomomnini rivojlantirish.
7. Nutqning rejalashtiruvchi faoliyatini rivojlantirish.

Bu ishlarni asosan, logoped logopedik va logoritmik mashg'ulotlarda amalga oshiradi.

Ikkinchi vazifa psixologo- pedagogik ta'sirni ko'zda tutib, bunda o'zi, o'zining nutqiy nuqsoniga nisbatan munosabatni tarbiyalash va qayta tarbiyalash, shuningdek, ijtimoiy faollikni shakllantirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Uchinchi vazifa tibbiy – sog'lomlashtiruvchi ishlarni va turg'un ravon nutqni mustahkamlash uchun takroriy reabilitatsiya kurslarini talab etadi.

Bu vazifalarni hal etish, u yoki bu darajada duduqlanuvchilarni har qanday yosh guruhiga tegishli mashhur kompleks reabilitatsiya tizimi tarkibiga kiradi. Ko'p hollarda, ular bir vaqtda, asta- sekin murakkablashtirib qo'llaniladi.



Duduqlanuvchilarni reabilitatsiyasining kompleks metodi bosqichma -bosqich amalga oshiriladi. Demak, korreksion ishlarning barchasi oddiydan murakkabga tamoyili asosida tashkil etilib, logopedik, logoritmik, psixoterapevtik va boshqa tadbirlarni olib borishda albatta hisobga olinishi talab etiladi. Har qanday reabilitatsion ta'sirdan avval, duduqlanuvchilar tekshirishlari va logopedik xulosa olishi kerak.

Xulosa qilish imkoniyati logopedik tashxis qilishni ko'zda tutadi. Logopedik tashxis o'zida qator maxsus tadqiqotlar yig'indisini namoyon etadi: pedagogik, psixologik, psixolingvistik va hokozo. Bu duduqlanuvchilarning nutq me'yorlaridan chetga chiqishi haqidagi belgilarni aniqlash imkonini beradi.

Logopedik tashxis olib borish faqatgina aniqlanadigan nuqsonlar haqida bilimlarga ega bo'lgandagina imkonli bo'ladi. Nutq rivojlanishining erta bosqichlarida tekshirish olib borish korreksion ishlarni erta boshlash va keyinchalik yuzaga kelishi mumkin bo'lgan patologik jarayonlarni oldini olish imkonini beradi.

Logoritmika - bu tizimli mashg'ulotlar sistemasi bo'lib, bunda barcha topshiriqlar musiqa sadosi ostida hamda sanoq ostida o'tkazilishi shart.

Logoritmikaning 3 muhim asosi: nutq, harakat, musiqa xisoblanadi. Duduqlanuvchi bolalar bilan olib boriladigan logoritmik mashg'ulotlar guruhli va individual tarzda amalga oshiriladi.

Guruhli mashg'ulotlar o'tkazish hamma bolalarning faol ishlashi uchun sharoit yaratadi. Individual yondashishda shaxsni jamoaga qarshi qo'yilganligi bilinmaydi, balki har bir bolaning ishini yaxshi bilgan holda guruhli mashg'ulotlarni tashkillashtirish mumkin.

Duduqlanuvchi bolalar bilan olib boriladigan logoritmik mashg'ulotlarni o'yin tarzida amalga oshirish samarali natija beradi, chunki o'yin bolaning etakchi faoliyati bo'lib, o'yin tarzida tashkillashtirilgan mashg'ulotlar bolalarning yanada qiziqishlari oshishiga sabab bo'ladi. Logoped guruhli mashg'ulotlarni tashkillashtirishda duduqlanuvchi bolaning yoshini hisobga olib, bir xil yoshli bolalarni tanlab o'tkazadi. Guruhda turli yoshli bolalarning borligi logopedik ishda alohida metodikalar qo'llash zaruriyatini tug'diradi hamda duduqlanishni bartaraf etishda davolash-pedagogik ishlarning tarkibini intensevligini o'zgartirishga olib keladi. Duduqlanuvchilar bilan olib boriladigan logoritmik ishlarda individual yondashish tamoyilini joriy etish bolalarni birlamchi va dinamik o'rganishda(mashg'ulot jarayonida) muhim ahamiyat kasb etadi. Logoped uchun lingvistik, psixologik va pedagogik ishlar muhimdir. Bular duduqlanuvchilarga korreksion ta'sir shaklini tanlashga sharoit yaratadi.

Bugungi kunda duduqlanuvchi bolalar nutq nuqsonlarini korreksiyalashning eng samarali usullaridan biri logoritmika hisoblanadi. Logoritmika musiqali ritmikaga asoslangan. Ko'plab tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, musiqali mashg'ulotlar bolalarning intellektual rivojlanishiga va boshqalar bilan muloqot qilish qobiliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Rossiyada maktabgacha yoshdagi bolalar uchun eng mashhur musiqali ritmika Sergey va Yekaterina Jeleznovalarning rivojlanishtirish metodikasi hisoblanadi



Har ikkala metodist faoliyatini musiqiy va pedagogik ta'limga asoslangan holda olib borishgan. Keng ko'lamli o'qitish tajribasi Sergey va Yekaterinaga mavjud o'yin shakli va tizimi bilan ajralib turadigan keng qamrovli dasturlarni yaratishga imkon berdi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Oppoqxo'jayev, Xojixuja, and Qunduzabibi Yusupova. "MAXSUS PEDAGOGIKA FANLARINI O 'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARGA ASOSLANGAN AMALIY MASHG 'ULOTLARINI LOYIHALASH." *Development and innovations in science 2* (2023): 25-31.

2. Oppokkhujayev, Khojikhuja, and Ziyoda Shavkatova. "PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR THE FORMATION OF NATIONAL ETIQUETTE SKILLS IN ELEMENTARY SCHOOL STUDENTS OF A SPECIAL EDUCATIONAL INSTITUTION." *International Conference on Multidisciplinary Research*. Vol. 1. No. 1. 2023.

3. Oppakhho'jayev, Son Of Khojikhuja Azimjon. "Technologies For Developing Inclusive Readiness Of Families Based On A Competent Approach." *Asian Journal Of Multidimensional Research* Issn: 2278-4853.

4. O'G, Oppoqxo'Jayev Xojixuja Azimjon. "INKLYUZIV TA'LIM JARAYONIDA BOSHLANG 'ICH SINFI O 'QUVCHILARINI ANTROPOSENTRIK YONDASHUV ASOSIDA TARBIYALASHNING ZAMONAVIY USULLARI." *Research Focus 4.Special Issue 2* (2025): 112-118.

5. O'G, Oppoqxo'Jayev Xojixuja Azimjon. "INKLYUZIV TA'LIMDA ANTROPOSENTRIK YONDASHUVNI SHAKLLANTIRISHDA TAMOYILLARINING AHAMIYATI." *Research Focus 4.Special Issue 2* (2025): 53-58.